

KONFERENSIYALAR UZ

— ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

IYUN, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyun

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-204-6

O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI. II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 138 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz/uzbekistan-2030>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 23-iyun

Mas’ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

ISBN 978-9910-09-204-6

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Kamolova Dilnavoz, Shomurodova Shahzoda

PAST TEMPERATURALAR HOSIL QILISH VA GAZLARNI SUYULTIRISH METODLARI5-10

TEXNIKA FANLARI

Mirabdullayev Fayzullo, Tursunov Otabek

5G TEXNOLOGIYASIDAGI XAVFSIZLIK MUAMMOLARINING TAHLILI 11-18

Tursunov Otabek, Shakarov Muhiddin

ZAMONAVIY SIMMETRIK SHIFRLASH ALGORITMLARINI CHIZIQLI KRIPTOTHLILI 19-27

TARIX FANLARI

Ergasheva Mohichexra

ROSSIYA IMPERIYASI SIYOSATINING ZARAFSHON VOHASIDAGI ETNIK MUVOZANATGA

TA'SIRI: TARIXIY MANBALAR ASOSIDA TAHLIL 28-31

Oralov Dostonbek

BIRINCHI JAHON URUSHINING TURKISTON O'LKASIDAGI IJTIMOY-SIYOSIY

JARAYONLARGA TA'SIRI 32-35

IQTISODIYOT FANLARI

Арипова Анна

ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ

ЭФФЕКТИВНОСТИ СДЕЛОК СЛИЯНИЯ И ПОГЛОЩЕНИЯ 36-40

Шарипов Жамшид, Нуридинов Рамзидин

СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ: ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ ДРАЙВЕРИ 41-48

Авдошкина Олеся

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОДДЕРЖКА МАЛОГО БИЗНЕСА ЧЕРЕЗ КРЕДИТНЫЕ

ИНСТРУМЕНТЫ: НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ 49-56

Azamatov Otabek

PROBLEMS IN IMPROVING THE COMPETITIVENESS OF SMALL BUSINESSES AND PROPOSED

SOLUTIONS 57-61

Eraliyev Sardorjon

AGROBIZNESDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY

USULLARI 62-64

Isomuxamedov Akbarjon

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA XARAJATLAR VA DAROMADLAR HISOBINI TASHKIL ETISH

VA TAHLIL QILISH 65-67

FILOLOGIYA FANLARI

Mamatova Feruza

ANTROPOFENOMENLAR: LINGVOKOGNITIV, LINGVOMENTAL, DINAMIK VA STATIK

TURLARI 68-73

Yuldasheva Xurshida

O'ZBEK ADABIY MEROSINING RAQAMLI PLATFORMALARDA O'RGANILISHI: IBN SINO

MISOLIDA 74-76

<i>Abduvaliyeva Kamola</i> “SHAJARAYI TURK” ASARIDAGI ETNONIMLARNING GRAMMATIK TUZILISHI VA YASALISHI	77-82
---	-------

GEOGRAFIYA FANLARI

<i>Abdirayimova Ozoda</i> SURXONDAYO VILOYATIDA BUDDIZM OBIDALARI ASOSIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	83-86
--	-------

YURIDIK FANLAR

<i>Alimjonov Fayozbek</i> LITSENZIYALASH TUSHUNCHASI, TIZIMLARI VA ULARNING TARIXIY RIVOJLANISHI	87-91
<i>Muradullayeva Sevinch</i> SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	92-96
<i>Abdullaeva Sabokhat</i> ISSUES OF IMPROVING INTERNATIONAL LEGAL MECHANISMS TO COMBAT TRANSNATIONAL CRIMES TARGETING CRYPTOASSETS	97-105

PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Haqberdiyev Baxtiyor, Ismag'ilova Madinabonu, Imomnazarova Durdona</i> TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI MUTAXASSISLARINING GRAFIK VA IJODIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH	106-108
<i>Разикова Дилфуза</i> ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДИАГНОСТИЧЕСКОГО ОЦЕНИВАНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ НЕФТЕГАЗОВОГО ПРОФИЛЯ	109-112
<i>Salimova Bakhora</i> TEACHING METHODOLOGY: PRINCIPLES, APPROACHES, AND INNOVATIONS	113-117
<i>Bakhronova Mahliyo</i> “DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH”	118-123
<i>Bekmuradova Gulnoza</i> TALABALARNI ILMIY-TADQIQOT ISHLARGA JALB ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK VA ILMIY-METODIK ASOSLARI	124-129
<i>Rahimov Javohir</i> DUAL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA 4K VIDEO STUDIYASIDAN FOYDALANISH VA VIDEODARSLARNI YOZISHNING DASTURIY METODIK TA'MINOTI	130-133
<i>Юсупова Сабохат</i> ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОГРЕССЕ ОБЩЕСТВА	134-137

“SHAJARAYI TURK” ASARIDAGI ETNONIMLARNING GRAMMATIK TUZILISHI VA YASALISHI

Abduvaliyeva Kamola Shavkat qizi,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti
Tel: +998 99 796 15 02
ORCID: 0000-0002-8935-4459
E-mail: kamola.z@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Shajarayi turk” asaridagi etnonimlarning grammatik tuzilishi va yasalishi o'rganilgan. Maqolada sodda va qo'shma etnonimlar tasnifi, tub va yasama etnonimlar xususiyatlari batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, etnonimlarning yuzaga kelishida asosiy bo'lgan lug'aviy-ma'noviy konversiya, morfologik qo'shimchalar yordamida so'z yasash va sintaktik usullar misollar bilan izohlanadi. Tadqiqotda, ayniqsa, turkiy tillarga xos -chi, -li, -lik, -chin, -r, -s, -n, -man qo'shimchalari orqali etnonimlarning hosil bo'lish jarayonlari ko'rsatilib, ularning semantik va grammatik jihatlari o'rganilgan. Tadqiqotda “Shajarayi turk” asaridagi etnonimlarning lingvistik tahlili orqali turkiy tillarning leksik qatlami, tarixiy grammatikasi va etnolingvistik jihatlari o'rganiladi. Bu ish turkiy xalqlarning etnik tarixi, madaniy aloqalari va til rivojini tushunishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Ushbu maqolada etnonimlarning hosil bo'lishida sintaktik usulning o'rni va ahamiyati batafsil tahlil qilinadi. Etnik guruhlarining tarixiy jarayonlarda birlashishi yoki bo'linishi natijasida yangi guruhlarining paydo bo'lishi, ularni nomlashda sintaktik usulning faol qo'llanilishi ta'kidlanadi. Muayyan etnos nomiga qo'shimcha aniqlovchi so'zlar birikmasi orqali yangi etnonimlar — “o'n uyg'ur”, “to'qqiz uyg'ur”, “burchig'in qiyot” kabi shakllarning vujudga kelishi va ular yangi etnik guruhning atributi sifatida faol ishlatilishi misollar bilan ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, bu jarayonlarning fonetik va morfologik jihatlari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: “Shajarayi turk”, etnonimlar, grammatik tuzilish, sodda etnonimlar, qo'shma etnonimlar, lug'aviy-ma'noviy konversiya, morfologik usul, sintaktik usul, turkiy tillar, qo'shimchalar.

GRAMMATICAL STRUCTURE AND FORMATION OF ETHNONYMS IN THE WORK "SHAGHARAYI TURK"

Abduvalieva Kamola Shavkat kizi,
Tashkent State University of Uzbek
Language and Literature, PhD student

Abstract. This article studies the grammatical structure and formation of ethnonyms in the work "Shajarayi Turk". The article analyzes in detail the classification of simple and compound ethnonyms, the characteristics of original and artificial ethnonyms. Also, the main lexical-semantic conversion, word formation using morphological suffixes, and syntactic methods in the emergence of ethnonyms are explained with examples. The study shows the processes of formation of ethnonyms, especially through the suffixes -chi, -li, -lik, -chin, -r, -s, -n, -man, which are characteristic of Turkic languages, and their semantic and grammatical aspects are studied. The study studies the lexical layer, historical grammar, and ethnolinguistic aspects of Turkic languages through the linguistic analysis of ethnonyms in the work "Shajarayi Turk". This work serves as an important source in understanding the ethnic history, cultural relations, and language development of Turkic peoples. This article analyzes in detail the role and importance of the syntactic method in the formation of ethnonyms. The emergence of new groups as a result of the unification or division of ethnic groups in historical processes, the active use of the syntactic method in naming them, is emphasized. The emergence of new ethnonyms - such as "on uyghur", "to'qqiz uyghur", "burchig'in qiyot" - through the addition of additional defining words to the name of a particular ethnos, and their active use as an attribute of a new ethnic group are illustrated with examples. The phonetic and morphological aspects of these processes are also considered.

Key words: "Shajarayi turk", ethnonyms, grammatical structure, simple ethnonyms, compound ethnonyms, lexical-semantic conversion, morphological method, syntactic method, Turkic languages, suffixes.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-204-6/uzb-14>

Etnonimlar – xalqlar, qabilalar, urug'lar va etnik guruhlarining nomlari – tilshunoslikda muhim o'rin tutadi, chunki ular orqali milliy madaniyat, tarix va tilning rivojlanish bosqichlarini o'rganish mumkin. “Shajarayi turk” [1] kabi qadimiy manbalarda uchraydigan etnonimlar turkiy xalqlarning etnogenezi, migratsiyasi va madaniy aloqalari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Ushbu tadqiqotda “Shajarayi turk” asaridagi etnonimlarning grammatik tuzilishi (sodda, qo'shma, juft, takror) va ularning yasash usullari (lug'aviy-ma'noviy konversiya, morfologik va sintaktik usullar) tahlil qilinadi. Etnonimlarning shakllanishida turli qo'shimchalar (-chi, -li, -man va boshqalar)ning roli, shuningdek, rang, son, kasb nomlaridan kelib chiqqan etnonimlar o'rganiladi.

Maqolaning asosiy maqsadi – “Shajarayi turk” asaridagi etnonimlarning lingvistik jihatlarini aniqlash, ularning turkiy tillar taraqqiyotidagi ahamiyatini ochib berish va etnonim yasashining umumiy qonuniyatlarini ko'rsatishdir. Tadqiqot natijalari turkiy tillar tarixi, dialektologiya va etnolingvistika sohalariga munosib hissa bo'lib xizmat qiladi.

Sodda etnonimlar grammatik jihatdan qo'shma, juft va takror tuzilishdagi etnonimlardan farq qiladi. Ularning asosiy xususiyati – bitta so'zdan iborat bo'lishidir.

Sodda etnonimlarni tarkibidagi lingvistik materialga ko'ra ikki turga bo'lish mumkin:

1. **Tub etnonimlar**
2. **Yasama etnonimlar**

“Shajarayi turk” asaridagi etnonimlarning ko'pchiligi tub etnonimlardan iborat. Ularni tub deb hisoblash ikkita xususiyatga asoslanadi:

- Etnonim qadimiy tub leksemalardan kelib chiqqan bo'ladi (masalan: *arlat, barlas, qiyot, mog'ul, uyg'ur, rus, so'g'd, xitoy*).
 - Etnonim hozirgi tilshunoslikda bo'linmaydigan o'zak sifatida qabul qilingan.
- Tub etnonimlarga quyidagi turlarni kiritish mumkin:
- **Rang-tusni bildiruvchi so'zlardan hosil bo'lganlar:** *ko'kovun, ko'klanga, sariq, qoranut, qoraxitoy, qizilbosh, qiziloyoq*;
 - **Son va miqdorni ifodalovchi so'zlardan tuzilganlar:** *uchel, ucho'q, o'nuyg'ur, to'rtuyg'ur, to'qqizuyg'ur*;
 - **Kasb-hunarlar va unvonlarga oid nomlar:** *arabachi, tevachi, turqaq, yilqili, qo'yli, o'choqli*.

Shuningdek, tub etnonimlar qatoriga qadimgi xalqlar nomlari, shuningdek, o'zbek tiliga o'tgan boshqa tillardagi qabila, urug', elat va millat nomlari ham kiradi.

Mana shu turdagi nomlar haqida E.V. Sevortyan quyidagicha fikr bildiradi: “Ayniqsa, arab tilidan o'zlashgan qo'shma shakllar ko'plab fonetik o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Buning sababi, bu birikmalar dastlab turkiy tip asosida shakllanganligi sababli fonetik shakllarning evolyutsiyasi ro'y bergan.” Ushbu fikrni o'zbek tilidagi ba'zi toponimlar va kishi nomlariga nisbat berilgan etnonimlar ham tasdiqlaydi.

Qo'shma etnonimlarga kelsak, ular birdan ortiq leksemaning birlashmasidan tashkil topgan bo'lib, grammatik tarkib jihatidan ajratish mumkin. Ko'pchilik bunday nomlar qadimiy emas, aksincha nisbatan keyingi davrlar mahsulidir. “Shajarayi turk” asaridan olingan misollar

sifatida to'qqiz uyg'ur, uchel, huroson soluri, o'n uyg'ur, o'rmanqit, qizilbosh, qoraxitoy, qo'niqqimar va boshqalar keltirilishi mumkin.

Etnonimlarning yasalishi

“Shajarayi turk” asarida qayd etilgan etnonimlar bo'yicha olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ular qadimgi davrlardan turkiy tilning o'ziga xos lingvistik imkoniyatlari asosida shakllanib, rivoj topgan. Etnonimlarning paydo bo'lishida nom yasash usullari asosiy rol o'ynagan. Umuman olganda, etnonimlar quyidagi uch usulda hosil qilingan:

1. Lug'aviy-ma'noviy konversiya usuli;
2. Morfologik (qo'shimchalar yordamida yasalish) usuli;
3. Sintaktik (so'z birikmalari orqali tuzilish) usuli.

1. Lug'aviy-ma'noviy konversiya usuli

Lug'aviy-ma'noviy konversiya – bu bir so'zning boshqa so'z turkumiga o'tib, yangi ma'no va vazifa olganda yuz beradigan hodisa. Bu jarayonda so'zning asl shakli saqlanadi, lekin u boshqa grammatik kategoriyaga o'tadi.

Konversiya ikki xil bo'lishi mumkin:

So'z hech qanday shakl o'zgarishsiz yangi ma'noda qo'llanadi.

So'z yangi vazifaga o'tgandan keyin unga qo'shimcha belgilar qo'shilishi mumkin.

Masalan, Qoraxitoy, o'n uyg'ur, to'qqiz uyg'ur kabi etnonimlarda xitoy va uyg'ur kabi asosiy etnonimlar o'zgarmagan holda qo'llanadi, ularga qora, o'n, to'qqiz kabi so'zlar keyinchalik qo'shilgan. Bu belgilar etnik guruhlarini bir-biridan farqlash uchun xizmat qilgan.

Mang'it etnonimining oqmang'it, ochmang'it, cholmang'it, qoramang'it, bog'undimang'it, to'qmang'it kabi variantlari ham ana shu usulda yuzaga kelgan.

Bu misollar shuni ko'rsatadiki, konversiya usuli orqali etnonimlar tarkibiy jihatdan boyib, turli xil etnik guruhlarini ifodalash imkoniyatini bergan [6; 107-b].

Morfologik usul

-chi qo'shimchasi. Bu qo'shimcha o'zbek adabiy tilidagi sermahsul qo'shimchalardan hisoblanadi. Bu qo'shimchaning etnonimikadagi yasovchilik fazilati va xususiyatlari alohida o'rganishga arziydi. Avvalo bu qo'shimcha bilan yasalgan etnonimlardan asardan olingan namunalarni keltiramiz: *arabachi, qo'shchi, tevachi va boshqalar*.

G.I. Ramstedt fikricha, -chi qo'shimchasining etnonim yasash jarayonidagi ma'nosi bilan -chi qo'shimchasining hozirgi ma'nolari o'rtasidagi muvozanatni, muvofiqlik yoki nomuvofiqlikni belgilash uchun har bir etnonimning atalishi va yasalishini tahlil qilish zarurati tug'iladi. Bundan tashqari, -chi qo'shimchasining qadimgi turkiy tildagi, mo'g'ul tilidagi va o'zbek tilining eng qadimiy o'tmishidagi ma'nolarini va vazifalarini aniqlashga va shularni qiyoslashga to'g'ri keladi. Bu vazifani bajarish faqat so'z yasash sohasining vazifasi emas, balki semasiologiya va nominatsiya (onomasiologiya) kabi tip nomi tarmoqlarining ham vazifasiga kiradi. Ma'lumki, -chi qo'shimchasi oltoy bobotipiga mansub so'z yasovchi. Uning kelib chiqishi ilmiy manbalarda turlicha talqin qilingan [7; 209-b].

-chi qo'shimchasi bilan yasalgan etnonimlarning yasash asoslarini aniqlab, ma'nosini belgilash, yasalmaning ma'nolarini tasnif qilish ancha qiyin. Berilgan tahlillar ham to'liq to'g'ri deb bo'lmaydi. Ana shu holatlarni inobatga olgan holda -chi qo'shimchasi bilan yasalgan etnonimlarning quyidagi xususiyatlarini qayd etish mumkin:

– Totem vazifasini bajargan mavjudotlarning nomiga qo'shilib, biron mavjudotga topinuvchi, uni muqaddas deb biluvchi kishilar jamoasi ma'nosini anglatadi. Misol uchun, *tevachi*.

– Biron kasb, hunar, mashg'ulot yoki shunga o'xshash narsalarga moyillik va shug'ullanish kabi ma'nolarni anglatadi. Masalan, *arabachi, qo'shchi*.

-li qo'shimchasi. Ushbu qo'shimcha bilan yasalgan etnonimlar "Shajarayi turk" asarida ham bir qancha holatda uchraydi. Masalan, *adaqli, yilqili, olali, oltinli, o'choqli, qaniqli, qiniqli va boshqalar*.

-li qo'shimchasi qadimiy yasovchilardan bo'lib, sifat hosil qilishda qatnashgan. A.M. Sherbakning fikricha, -lyo (-lu, -lo') eki o'zbek tilida nisbiy otlarni hosil qilgan [9; 209-b]. N.A. Baskakov -li qo'shimchasining paydo bo'lishini -li//lik//lig' /-liq//lig shaklida tasavvur qilgani ma'lum [3; 195–196-b]. Ammo A.N. Kononov bu fikrga qo'shilmaydi va -li tarixda mustaqil morfema bo'lgan deb hisoblaydi.

-lik (-liq/-luq) qo'shimchasi. O'zbek tilining so'z yasash tizimida ancha sermahsul bo'lgan va ot, sifat va ravishlardan ot hosil qiluvchi ushbu qo'shimchadir.

-lik qo'shimchasi eski o'zbek tilida so'zlarga -liq/-lig'// -lik//luk//luq//lug//luk variantlarida qo'shilgan. Qarluq, etnonimining hozirgi o'zbek tilida qorluq// qarluq/qorlik //qarlug' shakllarida uchrashi o'tmish davrlar merosidir.

"Shajarayi turk" asarida ushbu qo'shimcha asosida yasalgan etnonimlar deya *qorluq va qishliq* etnonimlarini keltirish mumkin.

-chin (-shin//shun//sin//sun) qo'shimchasi. Qozoq tilshunosi T. Jonuzokovning ta'kidlashiga ko'ra, etnonimlar tarkibidagi -chin/-shun/-shin/-sun/-sin qismlari turkiy tillar o'tmishidagi mustaqil so'z bilan bog'liqdir. Bu so'z oltoy tili bosqichiga oiddir. Shuning uchun bu so'zning muqobillari va tungus-manjur tillarida saqlanib qolgan.

"Shajarayi turk" asarida ushbu qo'shimcha asosida shakllangan uyshin etnonimi keltirilgan.

Uyshin – umumturkiy etnonim. Ayrim manbalarda o'zbeklarning boysin//boysun degan qabilasi borligi qayd qilingan. Uyshun qabilasining qozoq tilidagi shakli – uysun. Qo'shimcha tarkibida ch/s/sh tovushlari uyg'unligi aks etgan.

Tadqiqotchilar uyshun etnonimi ikki qismdan -uy//oy+sun//sin dan iborat deb hisoblashadi. Uy-oy – urug', uy, oila ma'nosiga ega. -ship/-shun ko'plik, jamlik ma'nosini anglatuvchi qo'shimchadir [4; 40-47-b].

A. Otajonova uyshun etnonimi etimologiyasini uy//oy – o'rmon+shin//sin mo'g'ul tilida qo'shimcha "odam" ma'nosida deb tushunadi hamda uyshun "o'rmon kishilari" deb talqin qiladi.

-r (-ar, -ur, -ir) qo'shimchasi. Ushbu qo'shimcha turkiy etnonimlar tarkibida keng va tor unlilarga ega shakllarda uchraydi. *salar-solir, majar-majir, yazar-yazir, chatsar-chatsir* kabi. Unlilarning bu tarzda almashinuvi qadimiy turkiy tildan ma'lum.

"Shajarayi turk" asaridagi ba'zi etnonimlarda ushu qo'shimchani ko'ramiz. Masalan: *sal+ur, maja+r, tat+ar, jalay+ir, er+sari* va boshqalar.

-s//z qo'shimchasi. A.N. Kononov -s qo'shimchasini qadimiy -z ning fonetik varianti deb hisoblab, ularni birgalikda talqin qilgan. S. Otaniyozov shunday yozadi: "Tadqiq qilinayotgan (-s) qo'shimchasi genetik jihatdan G. Ramsted tilga olgan tungus tilidagi ko'plik shakli -al//sel va manjurcha -sa//se bilan genetik bog'lik bo'lishi mumkin. Shuningdek, u chuvashcha -lar//ler o'rnida qo'llanuvchi -sam//sen bilan ham bog'lanadi" [2].

Biz to'plagan asardan olingan etnonimlar tarkibida -s(-z) qo'shimchasi uchraydi: *barla+s//barlo+s, nuku+z//nuku+s, suldu+z, qurla+s, to'la+s* va b.

-n (-in, -un) qo'shimchasi. Ushbu qo'shimchasining jamlangan, ko'plik anglatishini M. Koshg'ariy ta'kidlagan va er-erkak, eran-erkaklar ekanini qayd qilgan [5; 71-b]. -n qo'shimchasining ko'plik anglatishini o'z vaqtida A.N. Kononov, A.M. Sherbak, B.A. Serebrennikov va boshqalar ham ta'kidlashgan.

-n (-in, -un) qo'shimchasi "Shajarayi turk" asaridagi ba'zi etnonimlarda ham uchraydi. *bar+in, nir+un burchig'+in* va b.

-man// -mon qo'shimchasi. Ushbu qo'shimchaning morfologik va semantik xususiyatlari A. G'ulomov tomonidan maxsus tahlil qilinganligi ma'lum. Bu qo'shimchaga A.N. Kononov ham to'xtalgan.

A.Otajonova fikricha, etnonimlar tarkibida uchraydigan -man// -mon qo'shimchasi o'ziga xosdir. U ushbu qo'shimcha haqida A.N. Kononov, S.G. Og'ajonov, Z.Sh. Navshirmonovlarning fikrini tahlil qilar ekan, A.A. Roslyakovning "man – urug', qabila, kishilar" degan fikriga qo'shiladi va *turkman* etnonimini "turk qabilasi, turk odamlari" deya talqin qilgan.

Biz tadqiq qilgan asarda ham -man// -mon qo'shimchasi qo'llanilgan etnonimlar mavjud. Masalan, *turkman, do'rman, nayman* va boshqalar.

Shuni aytish kerakki, nayman, durman, turkman va shu yasalishdagi boshqa bir qator etnonimlarda -man qo'shimchasi kishi, odam, inson kabi ma'nolarni anglatgani haqiqatga birmuncha yaqin keladi, albatta. Bu hodisa tilning uzoq o'tmishida yuz bergan. Tildagi eng qadimiy etnonimlardan biri -man qo'shimchasi bilan yasalgan etnonimlar deb aytish mumkin. Shuni ham ta'kidlash kerakki, mo'g'ullarning ham nayman, durman degan kabilari bo'lgan. Demak, bu tip etnonimlarning yasalishi va yaralishi turkiy-mo'g'ul tillari bazasida yuz bergan.

Sintaktik usul. Etnonimlarni hosil qilishda morfologik, ya'ni qo'shimchalar yordamida so'z yasashdan keyingi eng faol usul – sintaktik usuldir. Bu usul qabila nomlarini yaratishda juda samaralidir.

Dastlab, yagona mustaqil qabila yoki urug' bo'lgan etnik guruhlar turli sabablar bilan tarixning ma'lum bosqichlarida birlashishi yoki aksincha, kichik guruhlariga, ya'ni mayda shoxobchalarga ajralib ketishi mumkin. Ana shunday jarayonda birlashgan etnik guruhlarining nomlari o'zaro qo'shilib, umumiy nomga aylanishi mumkin. "Shajarayi turk" asaridan keltirilgan misollar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Masalan, burchig'in qiyot, jadayin bayovut, makrin bayovut, huroson soluri kabi etnonimlarning tarixi shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda etnik birliklarning bo'linishi va tarmoqlanishi ularning birlashishidan ko'ra kuchliroq bo'lgan.

Yagona mustaqil etnosning yangi etnik guruhlariga ajralishi ularni ma'lum nom bilan atashni talab qiladi. Bu esa yangi etnonim hosil qilish demakdir. O'zbek etnonimlari materiallaridan ma'lum bo'lishicha, yangi nom ko'pincha asosiy etnos nomiga qo'shimcha so'zlar qo'shish orqali yaratiladi. Masalan, uyg'ur etnosidan ajralib chiqqan guruhlar – *o'n uyg'ur, to'qqiz uyg'ur* kabi.

Muayyan sabablarga ko'ra paydo bo'lgan yangi etnik guruhlar, birlashmalar, tarmoqlar va bo'linmalarni nomlashda sintaktik usul orqali yangi etnonim yaratish juda qulay va samaralidir. Yangidan paydo bo'lgan etnonimni nomlashda unga xos bo'lgan belgi yoki xususiyat asosiy o'rinda turadi. Bunday holatda yangi nom etnik bo'linmalarning asosiy etnos nomiga aniqlovchi so'zlar qo'shilish yo'li bilan hosil bo'ladi va bu aniqlovchilar yangi etnik guruhning atributiga

aylanadi. Quyidagi misollar bunga yaqqol misol bo'la oladi: *o'n uyg'ur, to'qqiz uyg'ur, burchig'in qiyot, jadayin bayovut, makrin bayovut, huroson soluri, qoraxitoy, qoranut* va boshqalar.

Xulosa

“Shajarayi turk” asaridagi etnonimlar tahlili turkiy tillarda etnonimlarning shakllanishi va rivojlanishida uch asosiy yasash usulining – lug'aviy-ma'noviy konversiya, morfologik qo'shimchalar yordamida yasash va sintaktik usulning muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Tadqiqot natijasida sodda etnonimlar tub va yasama turlarga bo'linib, ularning tubi qadimiy, bo'linmas o'zak sifatida hosil bo'lgan so'zlardan tashkil topgani aniqlandi. Qo'shma etnonimlar esa asosan keyingi davrlarning mahsuli bo'lib, ular grammatik jihatdan murakkab tuzilmalardan iboratdir. Maqolada -chi, -li, -lik, -chin, -r, -s, -n, -man kabi qo'shimchalarning etnonim yasashdagi xususiyatlari va semantik ma'nolari yoritildi. Bu esa turkiy etnonimiyaning til ichidagi yasash mexanizmlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Umuman olganda, “Shajarayi turk” manbasi orqali olingan etnonim materiallari turkiy xalqlarning tarixiy va madaniy merosini o'rganishda tilshunoslik va etnografiya sohalari uchun qimmatli ma'lumotlar taqdim etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Абуғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992.
2. Атанязов С. Этнонимы в туркменском языке: Автореф. дне. – д-ра фшзол. наук.
3. Баскаоя Н.А. Каракалпакский язык. II. Фонетика и морфология. – М.: Наука. 1952. – С. 195–196.
4. Кононов А.Н. Опыт анализа термина тюрк //Сов. Этнография. – 1949. – №1. – С. 40–47.
5. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғатит турк. I Т. – Б. 71.
6. Марқаев К. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи: филол. фан. номз. дисс. – Т., 2007. – Б. 107.
7. Рамстедт Г.И. Введение в алайское языкознание. Морфология. – М.: Наука, 1957. – 209 с.
8. Севортян Э.В. К соотношению грюаитики и лексики в тюркских языках // Вопросы теории и историк языка. – М.: Наука, 1952. – С. 319.
9. Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. – М.: Наука, 1962. – 209 с.

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 23-iyun

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

**O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari.** – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 138 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz/uzbekistan-2030>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 23-iyun

ISBN 978-9910-09-204-6

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.